

AMIR TEMURNING HARBIY ELCHILIK FAOLIYATI

Asrorova Dilruxsor

TDPU Tarix fakulteti TO'M yo'nalishi 4-kurs talabasi

Anotatsiya: Maqolada Amir Temurning harbiy elchilik faoliyati va olib borgan diplomatik aloqalari ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Diplomatiya, savdo diplomatik aloqalar, Kichik Osiyo, Genuya, Amir Temur.

Amir Temur jahon tarixida qudratli va gullab yashnagan davlat barpo etgan buyuk sarkarda va buyuk davlat arbobi sifatida ma'lum. Shu bilan birgalikda Amir Temur tarixda o'z davrining mohir diplomati sifatida ham chuqur iz qoldirgan. Shu o'rinda takidlash lozimki, Fransiyada Amir Temur shaxsiga bo'lgan qiziqish katta bo'lib, ular Sohibqiron va u asos solgan buyuk sulola tarixini yoritishda faqat harbiy yurishlari va amalga oshirgan ishlar salnomasini tuzish bilan cheklanmasdan, o'sha davr ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy mafkuraviy muhitni hamda Amir Temurga va uning avlodlariga xos sof insoniy fazilatlarni, ularning davlat, jamiyat, din va ilm-fanga bo'lgan munosabatni ham atroflicha tadqiq qilishga alohida e'tibor beradilar. Amir Temur davlat tuzishda juda ajoyib taktika va uslublarni qo'llagan bo'lsa, buyuk imperiya tuza oldi. U buyuk imperiya tuzish bilan bir qatorda, davlatda elchilik faoliyatini ham mohirona qo'llay oldi. Sohibqiron Amir Temur xalqlar va mamlakatlarni bir-biri bilan bog'lashga hissa qo'shdi. U Yevropaning Fransiya, Angliya, Kastilya kabi yirik qirollar bilan savdo va diplomatik aloqalarni o'rnatdi. Tarixiy hujjatlar dalolat berishicha XIV asrning 70-yillaridayoq Yevropa davlatlari vakillari Movorounnahrda kelib, bu yerda tashkil topgan yangi mustaqil davlatning qudrati va salohiyati bilan tanisha boshlaganlar.

Sohibqiron bobomiz hukmronligining keyingi yillarda Fransiya qiroli Karl VI (1380-1422) Angliya qiroli Genrix IV (1399-1413) Kastilya va Lion qiroli Genrix in de Trastamara (1390-1407) lar bilan diplomatik aloqalar o'rnatib yozishmalar olib borgan. Tarixchi Klavixoz yozishicha „Amir Temur davlatiga elchilar tashrif buyursa ularning xavfsizliklarini birinchi navbatda ta'minlay olgan. Xavfsizlikni ta'minlash uchun yom tizimini (yomlarni) tashkil qilgan. Yomlar yo'ldagi bekatlar bo'lib, u yerda otlar va aravalar turadi. Har 30 chaqirimda bitta yom. Yomlarda sharoitlar shunchalik qulay ediki, agar elchilar yomlarga yetolmay otlari charchab qolsa, xohlagan yo'ldagi amaldordan otlarini olib qo'yishlari mumkin bo'lgan. Hattoki, shahzodalar ham otlarini berishga majbur edi. Buni „sinyor“ ya'ni Amir Temur xohlagan edi“ deb yozadi o'z asarlarida. Tarix fanlari nomzodi professor, dotsent Ismatullayev Farhod aka ham o'z chiqishlarida Amir Temur ulkan va keng davlat hududida nazoratni va xavfsizlikni juda

zo'r yo'lga qo'ya olgan shaxs sifatida takidlaydi. Ayni shu davrlarda bilamizki Yevropadan Amir Temur huzuriga elchilarning sog' - salomat kelishlari va ketishlarini ta'minlay oldi. Vaholanki o'sha davrda Markaziy Osiyo xalqlarining Haj safarlariga borishlariga beziyon bora olmayotgan davrlar edi. Bilamizki Sulton Ahmad Bog'dod hokimi, Sulton Yusuf bilan birgalikda Haj safaridan qaytayotganlarni talab ziyon yetkazayotganda, Bog'dod aholisi Amir Temurdan panoh so'ragan. Anashu Bog'dodda ham tinchlikni ta'minlay Amir Temur davrida Angliya ham elchilar jo'natdi. Angliya ko'proq Amir Temurning o'g'li Mironshoh bilan diplomatik aloqalarni olib bordi. Chunki Mironshoh g'arbiy hududlarning suyurg'ol egasi sifatida faoliyat yuritgan ko'proq diniy bag'rikenglikga juda katta e'tibor qaratganligi uchun ularga bu juda yoqib, hatta Mironshohni „katolik dininig homiysi "sifatida ta'kidlab ulug'lashadi. Mana tarelandlikning g'arbdagi e'tirofi. Xususan biz O'rta Osiyo hamma davrlarda tareland bo'lganmiz. Va bu xususiyatimiz hozirgacha davom etmoqda. Ko'p holatda biz Fransiyani savdogarlar bilan Angliya va Ispaniya aloqasini aytamizu, Germaniyani esdan chiqaramiz. Germaniya bilan ochiqdan a'loqa bo'lmasada kishik bordi keldilar bo'lganligini yozishmoqda. Bavaryalik Yuxanes Shilbergel ismli bir ritser 1396-yil Nikapol jangida Usmonlilarga asir tushib, Usmonlilar davlatida Amir Temur Anqara jangida g'olib bo'lgach, Yuxanes Shilbergel Markaziy Osiyoga keladi va bir muddat Temur, bir muddat Mironshoh va Shoxrux hizmatlarida bo'lib, 1402-1412- yillar eson-omon Germaniyaga ketadi. Shu yerda Amir Temur va Temuriylar haqida ko'rgan bilganlarini yozadi. Bundan bilinadiki nemislar ham XIV - XV asr boshlarida biz, Amir Temur haqida xabardor edi. 1402-yil bahorida dastlab Ispaniya elchilari Amir Temurning Kichik Osiyodagi qarorgohiga yuboriladi. Elchilarga Amir Temur va Boyazidning kuch qudrati, boyligi va qo'shining sonini bilish hamda ular qo'l ostida yashayotgan xalqlarning urf-odatlarini, dini va qonunlari haqida aniq ma'lumotlar to'plash topshiriladi. Sharq va G'arb davlatlarining elchilari qatorida Ispaniya elchilari ham Amir Temur tomonidan qabul qilinib, qirol nomiga yozilgan maxsus maktub va in'omlar bilan kuzatiladi. Ularga qo'shib Amir Temur Muhammadqozi ismli vakilini ham Ispaniyaga elchi qilib yuboriladi. umga Klavixo boshliq qilib tayinlanadi. Klavixo boshchiligidagi Ispan elchilari 1404- yilning sentabr-noyabr oylarida Samarqandda bo'ladilar. Amir Temur Xitoyga yurishi munosabati bilan boshqa ko'pgina davlatlarning elchilari bilan bir qatorda Ispaniya elchilari ham 1404-yilning 27-noyabrda Samarqanddan jo'natib yuboriladi. klavixo Ispaniyaga 1406-yilning mart oyida qaytib keladi. Klavixoning safar taassurotlarini, „Buyuk Temur tarixi“ va „Temur qarorgohi“, „Samarqanddan sayohat kundaligi“ nomlari ostida ispan tilida bir necha bor nashr qilinadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki: Amir Temur chinakam diplomat aloqalarda tengsiz hukmdor edi. Amir Temur davrida elchilik yuqori darajaga chiqqanini ko'ramiz

shu davrlarda .Amir Temurning Yevropa bilan qilgan a'loqasi tufayli hozirgi kunda ham uning shabadalari esib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Tarix fan.nom dotsent Ismatullayev Farhod
- 2.<https://www.youtube.com/@FarxodIsmatullayev>.
- 3.Mo'minov I.M. A.Temur va temuriylar davri Тошкент, „Fan’’,1996
- 4.Temur tuzuklari. Toshkent 1999.
- 5.Azamat Ziyo.O'zbek davlatchiligi tarixi.Тошкент, „Sharq’’,2000. Bet-44
- 6.Amir Temur jahon tarixi.Тошкент,1991. Bet-55
- 7.Borodin Sergey „Samarqand osmonida yulduzlar’’.Тошкент,2020